

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD-HUQUQ TIZIMIDA KONSTITUTSIYAVIY SUDNING AHAMIYAT

Ergashova Sabrina To'liqinjon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

Xalqaro huquq fakulteti

1-bosqich talabasi

Ergashovasabrina6@gmail.com +998973441605

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10648937>

Annotatsiya: Butun dunyoda qonunlar yaratilar ekan, ularning davlat Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash muhim masala hisoblanadi. Ushbu tezis O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan qonunlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshiruvchi organ-Konstitutsiyaviy sud haqida ma'lumot beradi.

Kirish so'zlar: Konstitutsiya, Kostitutsiyaviy sud, qonun, sud tizimi, qaror, Oliy sud, Prezident.

Konstitutsiyamizning 1-moddasida suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deya tariflangan O'zbekiston yaratilayotgan qonunlarning bosh qomusimizga muvofiqligini aniqlash va uning normalariga sharh berish maqsadida, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organ-Konstitutsiyaviy sudni tashkil etgan. Konstitutsiyaviy sudning faoliyati haqida Konstitutsiyaning 132-133-moddalari va 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunda ma'lumotlar berilgan. Konstitutsiyaviy sudning asosiy vakolati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga binoan, Oliy Majlis Senati tomonidan, Sudyalari Oliy Kengashi taqdim etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar tomonidan Qoraqalpog'iston vakilini qo'shgan holda saylanadi. O'zbekiston Respublikasida 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan referendum asosida qabul qilingan yangi konstitutsiyaga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud sudyalari vakolat muddati 10 yil Konstitutsiyaviy sud raisi va o'rinbosarining vakolat muddati esa 5 yil hisoblanadi va ular 9 nafar sudyadan iborat. Konstitutsiyaviy sud sudyalari Prezident tomonidan imzolananadigan guvohnoma beriladi. Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud qonunchilik tashabbusi huquqiga ega va huquq qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik Palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy Sud sudyasi daxlsizlik huquqidan foydalanadi va hech kim Konstitutsiyaviy sudning roziligisiz ularni jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortishi, qamoqqa olishi va hibsdan saqlashi mumkin emas. Shu bilan bir qatorda Konstitutsiyaviy sud Oliy sudning muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normative-huquqiy hujjatlarining konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlaydi. Har yili mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonunchilikning holati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisga hisobotlar taqdim etadi. Konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy hisoblanadi, uning ustidan shikoyat qilishga hech kim haqli emas va rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Agar qonun fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklariga putur yetkazsa va Konstitutsiyaga muvofiq kelmasa, shuningdek sudda himoya qilishning barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga egalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis huzuridagi inson huquqlari bo'yicha vakillik organi-

Ombudsman, Bosh Prokuror, Oliy sud, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Hisob Palatasi va yana boshqa mansabdor shaxslar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega. Murojaatlar yozma va elektron shakllarda bo'lishi mumkin. Murojaatnomada murojaat qiluvchi shaxsning ism, familiyasi, Konstitutsiyaviy sudga ko'rib chiqilishining huquqiy asoslar va ilova qilinadigan hujjatlar va qo'yilgan masala yuzasidan murojaat qiluvchi shaxsning nuqtai nafari bayon qilinishi kerak. Murojaatlar Konstitutsiyaviy sud tomonidan ro'yxatdan o'tqaziladi va konstitutsiyaviy sud vakolatiga kirmaydigan masalar "jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq vakolatli organga besh kunlik muddatda yuborilishi lozim.

Konstitutsiyaviy sudning hozirgi kundagi tarkibiga to'xtaladigan bo'lsak, Konstitutsiyaviy sud raisi Abdusalomov Mirzo-Ulug'bek Elchiyevich va rais o'rinbosari G'afurov Asqar Boyisovich va yana olti nafar sudyadan iborat.

Konstitutsiyaviy sud majlisi agar ochiq tartibda ko'rib chiqilayotgan bo'lsa raislik qiluvchi shaxsning roziligi bilan ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etishlari mumkin. Sudyalar majlisida maxsus kiyim-bosh kiyishadi va bu Senat tomonidan belgilab qo'yiladi. Ishtirokchilar faqatgina raislik qiluvchi shaxsning roziligi bilangina fotosuratlar va videolavhalar olishlariga ruxsat etiladi. Majlis davomida ishtirok etuvchilar sudga hurmat bilan munosabatda bo'lishlar va ularga so'z berilganida, sud tarkibi zalga kirib kelganida va qaror o'qib eshittirilayotgan paytda o'rinlaridan turishlari va murojaat qilayotganlarida "Hurmatli Konstitutsiyaviy sud" deb murojaat qilishlari kerak. Agar sud majlisida Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga kirmaydigan masala murojaat bo'lsa ishni tugatish to'g'risida Konstitutsiyaviy sud ajrim chiqaradi. Sud muzokaralaridan so'ng, agar ishni ko'rib chiqilishni yangidan boshlash uchun asoslar bo'lmasa, sud majlisida raislik qiluvchi ishni ko'rib chiqilish tamomlanganligini, ish bo'yicha qabul qilingan qarorni e'lon qilish sanasi haqida konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish ishtirokchilari xabardor qilinishini ma'lum qiladi va Konstitutsiyaviy sud ish bo'yicha qaror qabul qilish uchun maslahatxonaga kiradi.

Konstitutsiyaviy sud xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyaviy nazorat organlari bilan hamkorlik qilishi, deklaratsiyalar, anglashuv memorandumlari, ahdlashuv bayonnomalari, hamkorlik rejalari tuzishi, shuningdek o'zaro tajriba hamda axborot almashish sohasida hamkorlik qilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, sayyoramizdagi ko'plab rivojlangan demokratik davlatlar mamlakatda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash va fuqarolarning huquq va erkinliklarini munosib himoya qilish va ta'minlash uchun mamlakat hududida majburiy kuchga ega bo'lgan, tegishli davlat organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilinadigan qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishadi. Ularning qonuniyligini rasman tan olish maqsadida Asosiy qonunlarida ham buni aks ettirishadi. Mana shu yaratilayotgan qonunlar mamlakatning asosiy qonuniga muvofiq bo'lishi va u e'lon qilingan davrda fuqarolar uning mohiyatini to'g'ri anglashlari zarurati paydo bo'ladi. Aynan mana shu maqsadda O'zbekiston ham qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimat hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash va Konstitutsiya normalariga sharh berish maqsadida Konstitutsiyaviy sudni shakllantirgan. Shuni alohida ta'kidlasak bo'ladiki, Konstitutsiyaviy sud tom ma'noda mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda asosiy vosita, yo'lchi yulduz vazifasini bajarmoqda desa mubolag'a bo'lmaydi.

References:

1. <https://lex.uz/docs/-5391934>
2. <http://www.konstsud.uz/oz/docs/sud-haqida>
3. <https://advice.uz/oz/document/2367>
4. <http://www.konstsud.uz/oz>



INNOVATIVE
ACADEMY